XII. BANDLIK VA MEHNAT BOZORI

2023- yil yanvar-sentabr oylarida bandlikka ko‘maklashuvchi markazlariga ishga joylashtirishda yordam berishni so‘rab 53 113 nafar fuqaro murojaat qildi. Ish qidirib murojaat etganlarning katta qismi Qarshi shahrida (4 533 kishi), G‘uzor (4 872 kishi), Koson (3 905 kishi), Qamashi (3 860 kishi), Shahrisabz (3 423 kishi), Yakkabog‘ (3 544 kishi), Qarshi (3 468 kishi), Dehqonobod (3 380 kishi) , Nishon (3 117 kishi) , Kitob(3 076 kishi) tumanlariga to‘g‘ri keladi.

Bandlikka ko‘maklashuvchi markazlariga murojaat qilgan fuqarolardan 26 778 nafari ishga joylashtirildi. Ayniqsa ushbu ko‘rsatkich, Qarshi shahrida (2 330 kishi), G‘uzor (3 303 kishi), Koson (2 475 kishi), Qamashi (1 966 kishi), Shahrisabz (1 926 kishi), Kitob (1 722 kishi), Chiroqchi (1 630 kishi), Yakkabog‘ (1 605 kishi) tumanlarida yuqori darajada bo‘ldi. O‘tgan davr mobaynida bandlikka ko‘maklashuvchi markazlarida ro‘yxatga olingan fuqarolardan 2 796 nafari ishsizlik maqomini olgan.

Bandlikka ko‘maklashuvchi markazlari orqali ishga joylashtirilgan fuqarolar soni quyidagicha ifodalanadi:

Bandlikka ko‘maklashuvchi markazlari orqali ishga joylashtirilgan fuqarolar soni
(*kishi*)



Bandlikka ko‘maklashuvchi markazlariga ish qidirib murojaat etgan va ro‘yxatga olinganlar soni
(*2023- yil 1- oktabr holatiga, kishi*)

	Bandlikka ko‘maklashuvchi markazlariga ish qidirib murojaat etganlar soni		*jumladan, rasman ishsiz maqomini olganlar*		*ulardan, ishsizlik nafaqasi ajratilganlar soni*	
	2022- yil yanvar-sentabr	*2023- yil yanvar-sentabr*	*2022- yil yanvar-sentabr*	*2023- yil yanvar-sentabr*	*2022- yil yanvar-sentabr*	*2023- yil yanvar-sentabr*
Viloyat bo‘yicha:	**28 906**	**53 113**	**2 774**	**2 796**	**2 774**	**2 796**
shaharlar:						
Qarshi	2 491	4 533	209	98	209	98
Shahrisabz	1 361	2 352	298	178	298	178
tumanlar:						
G‘uzor	2 063	4 872	324	207	324	207
Dehqonobod	1 199	3 380	23	169	23	169
Qamashi	1 797	3 860	283	111	283	111
Qarshi	2 366	3 468	142	101	142	101
Koson	2 466	3 905	37	359	37	359
Kitob	1 964	3 076	164	67	164	67
Mirishkor	898	2 103	201	390	201	390
Muborak	2 115	2 293	75	44	75	44
Nishon	1 970	3 117	273	236	273	236
Kasbi	1 181	2 505	164	132	164	132
Ko‘kdala	1 077	2 565	16	120	16	120
Chiroqchi	2 057	4 117	77	153	77	153
Shahrisabz	2 202	3 423	283	244	283	244
Yakkabog‘	1 699	3 544	205	187	205	187

Bandlikka ko‘maklashuvchi markazlariga ish qidirib murojaat etgan fuqarolarning hududlar kesimidagi ulushi

(jami murojaat qilganlarga nisbatan ulushi, foizda)



Izoh: 2023- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo‘yicha Bandlikka ko‘maklashuvchi markazlariga murojaat qilib kelganlardan ro‘yxatga olinganlar ulushi Qarshi shahri va Nishon, Dehqonobod, Koson, Mirishkor tumanlarida yuqori bo‘lgan.

Ish bilan ta'minlangan aholi soni[1)]

	2022- yil yanvar-sentabr	*2023- yil yanvar-sentabr*
Viloyat bo'yicha:	**21 226**	**26 778**
shaharlar:		
Qarshi	2 225	2 330
Shahrisabz	1 008	1 052
tumanlar:		
G'uzor	1 464	3 303
Dehqonobod	1 101	1 226
Qamashi	1 380	1 966
Qarshi	1 612	1 535
Koson	2 047	2 475
Kitob	1 519	1 722
Mirishkor	682	860
Muborak	956	1 265
Nishon	1095	1 291
Kasbi	1 031	1 308
Ko'kdala	902	1 284
Chiroqchi	1 500	1 630
Shahrisabz	1 287	1 926
Yakkabog'	1 417	1 605

[1)]Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi ma'lumotlari asosida

Ish bilan ta'minlangan aholining hududlar kesimidagi ulushi

(jami ish bilan ta'minlanganga nisbatan ulushi, foizda)



Izoh: Ishga joylashtirilgan shaxslar soni Qarshi shahrida, Kitob, Qamashi, Koson, G'uzor, Chiroqchi, Shahrisabz va Qamashi tumanlarida yuqori bo'lganligini ko'rish mumkin.

O‘RTACHA OYLIK ISH HAQI

O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi. 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida Qashqadaryo viloyatida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 200,9 ming so‘mni tashkil etdi.

Bunda ish haqiga ustama, mukofot, rag‘batlantirish xususiyatiga ega to‘lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to‘lovlar kiritilgan, shuningdek uning tarkibida jismoniy shaxslarning daromad solig‘i, ijtimoiy sug‘urta va kasaba uyushmasiga to‘lovlar ham mavjud.

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida Qashqadaryo viloyatida o‘rtacha oylik ish haqining eng yuqori miqdori Nishon tumanida 4 426,8 ming so‘m (viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 138,3 foiz) ,Qarshi shahrida 4 352,2 ming so‘m (136,0 foiz), Muborak tumanida 3 370,6 ming so‘m (105,3 foiz), G‘uzor tumanida 3 601,4 ming so‘m (112,5 foiz) va Dehqonobod tumanida 3 200,8 ming so‘m (100,0 foiz) ni tashkil etgan.

Yuridik shaxslarda xodimlar soni va mehnatga haq to‘lash tarzida hisoblangan daromad

(2023- yilning yanvar-sentabr oylarida qishloq xo‘jaligi korxonalari hamda kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

	Xodimlar soni, kishi	Mehnatga haq to‘lash tarzida hisoblangan daromad mlrd.so‘m	O‘rtacha oylik ish haqi, ming so‘m
Viloyat bo‘yicha jami	**232 076**	**6 685,7**	**3 200,9**
shu jumladan:			
Sanoat	24 992	1 231,3	5 474,6
Qurilish	3 979	146,3	4 084,3
Savdo	2 058	56,3	3 040,7
Tashish va saqlash	5 513	284,9	5 742,2
Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	157	3,2	2 234,5
Axborot va aloqa	783	52,7	7 486,3
Bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik	2 064	188,8	10 164,6
Ta’lim	110 770	2 532,4	2 540,2
Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko‘rsatish	51 111	1 057,4	2 298,8
San’at, ko‘ngil ochish va dam olish	2 160	73,5	3 780,8
Boshqa faoliyat turlari	28 489	996 ,2	3 885,4

O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2023- yilning yanvar-sentabr oylarida qishloq xo‘jaligi korxonalari hamda kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so‘m)



Viloyat bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 200,9 ming so‘mni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 11,9 % ga o‘sgan.

O‘rtacha ish haqining yuqori miqdorlari iqtisodiy faoliyat turlaridan Bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilikda 10 164,6 ming so‘m (viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 3,2 barobarga yuqori), Axborot va aloqada 7 486,3 ming so’m (viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 2,3 barobarga yuqori), Tashish va saqlash sohasida 5 742,2 ming so‘m (viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 79,4 % ga yuqori), Sanoat sohasida 5 474,6 ming so‘m (viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 71,0 % ga yuqori), hamda Qurilish sohasida 4 084,3 ming so‘m (viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 27,6 % ga yuqori) ekanligi kuzatildi.

Qashqadaryo viloyati bo‘yicha
o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(yanvar-sentabr oylarida qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so‘m)

	2022- yil	*2023- yil*	*O‘sish sur’ati, % da*
Qashqadaryo viloyati	**2 859,9**	**3 200,9**	**111,9**
shaharlar:			
Qarshi sh.	3 831,0	4 352,2	113,6
Shahrisabz sh.	2 317,1	2 725,4	117,6
tumanlar:			
G‘uzor	3 436,8	3 601,4	104,8
Dehqonobod	2 670,0	3 200,8	119,9
Qamashi	2 111,4	2 294,8	108,7
Qarshi	2 092,0	2 517,5	120,3
Koson	2 315,0	2 550,4	110,2
Kitob	2 299,4	2 489,4	108,3
Mirishkor	2 412,3	2 625,9	108,9
Muborak	3 732,9	3 370,6	90,3
Nishon	2 974,2	4 426,8	148,8
Kasbi	2 324,0	2 576,5	110,9
Ko‘kdala	2 281,6	2 344,7	102,8
Chiroqchi	2 548,8	2 701,3	106,0
Shahrisabz	2 365,0	2 489,8	105,3
Yakkabog‘	2 337,4	2 452,4	104,9

Ish haqi. 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ish haqi tahlili quyidagilarni ko‘rsatmoqda.

Ta‘lim sohasida 1842 ta muassasada 110 770 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 47,7 %) xodim ishlagan bo‘lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 2 532,4 mlrd. so‘mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 37,9 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 540,2 ming so‘mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 12,4 % ga o‘sgan.

**Ta‘lim iqtisodiy faoliyati bo‘yicha
o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**
(2023- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

Oliy ta‘limda **6 177,4 ming so‘m**	**O‘rta maxsus ta‘limda** **2 788,8 ming so‘m**
Umumiy o‘rta ta‘limda **2 607,1 ming so‘m**	**Maktabgacha ta‘limda** **1 399,0 ming so‘m**

Ta‘limda jami
2 540,9 ming so‘m



Sanoat iqtisodiy faoliyat turida 46 ta korxonada 24 992 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 10,8 % ni) xodim ishlagan bo‘lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 1 231,3 mlrd. so‘mni (jami ish haqi fondidagi ulishi 18,4 % ni) tashkil etgan. Sanoat sohasida ishlovchilarga hisoblangan o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 5 474,6 ming so‘mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 22,3 % ga o‘sgan.

Sanoat iqtisodiy faoliyati bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2023- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari ming so‘m)



Ushbu sohadagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko‘rsatkichini viloyat hududlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, ya’ni o‘rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Nishon tumanida 10 098,3 ming so‘mni (Viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 3,2 martaga yuqori), Dehqonobod tumanida 7 379,1 ming so‘mni (2,3 martaga yuqori), G‘uzor tumanida 6 538,5 ming so‘mni (2,0 martaga yuqori), Muborak tumanida 5 966,1 ming so‘mni (1,9 martaga yuqori) tashkil etgan bo‘lsa, Qarshi tumanida 2 804,7 ming so‘mni (87,6 %), Qamashi tumanida 2 792,4 ming so‘mni (87,2 %), Kitob tumanida 2 739,2 ming so‘mni (85,6 %) hamda Shahrisabz shahrida 2 150,0 ming so‘mni (67,2 %) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo‘lmoqda.

Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish sohasida 108 ta muassasada 51 111 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 22,0 % ni) xodim ishlagan bo‘lib ularga hisoblangan ish haqi fondi 1 057,4 mlrd. so‘mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 15,8 % ni) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 298,8 ming so‘mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 6,8 % ga o‘sgan.

Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish faoliyati bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(2023- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari ming so‘mda)



Ushbu sohadagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko‘rsatkichini viloyat hududlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, o‘rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Mirishkor tumanida 3 153,6 ming so‘mni (viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 137,2 %), Qarshi shahrida 2 715,0 ming so‘mni (118,0 %), Kasbi tumanida 2 653,0 ming so‘mni (115,4 %), Muborak tumanida 2628,8 ming so‘mni (114,3 %), Kitob tumanida 2 349,9 ming so‘mni (102,2 %) tashkil etgan bo‘lsa, Koson tumanida 1 884,2 ming so‘mni (58,9 %), Dehqonobod tumanida 1 821,1 ming so‘mni (57,0 %), Nishon tumanida 1 832,1 ming so‘mni (57,3 %), Qarshi tumanida 1 805,4 ming so‘mni (56,5 %) va Qamashi tumanida 1 583,5 ming so‘mni (49,5 %) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo‘lmoqda.

San’at, ko‘ngil ochish va dam olish iqtisodiy faoliyat turida 54 ta muassasada 2 160 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 0,9 % ni) xodim ishlagan bo‘lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 73,5 mlrd. so‘mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 1,1 % ni) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 780,8 ming so‘mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 29,6 % ga o‘sgan.

San’at, ko‘ngil ochish va dam olish faoliyati bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(*2023- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so‘mda)*



Ushbu sohadagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko‘rsatkichini viloyat hududlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak o‘rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Muborak tumanida 4 949,1 ming so‘mni (viloyatdaga o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 154,6 %), Qarshi shahrida 4 652,3 ming so‘mni (viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 145,3 %) kuzatildi.

O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati

(2023- yilning yanvar-sentabr oylarida qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari % da)



ming so'm